



UDK: 821.512.133:82-97

Nodirjon G'AFUROV,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: nodirjong8@gmail.com

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti prof. v.b., f.f.d O.Hamroyeva taqrizi asosida

ALISHER NAVOIY FARDLARIDA E'TIQODIY TARTIB 2

Annotatsiya

Alisher Navoiyning har bir asari alohida ahamiyat va e'tiborga loyiq. Undagi har bir so'z ma'lum maqsad va ma'noda ishlatiladi. Darhaqiqat, u xoh yirik, xoh kichik badiiy asar bo'lsin, bundan chetda qolmaydi. Bu maqolada uning yirik asarlari tadqiqiga emas, aksincha, hajman kichik, badiiyati yuqori, mazmuni teran bo'lgan fardlariga to'xtalindi. Bu kichik asarlarni o'rganish, ularni o'z mazmun va badiiyati bilan namoyish etish bugungi kunimizning dolzarb mavzularidandir. Tadqiqot ishini amalga oshirishda muqaddas Qur'oni Karimning ma'nolari tarjimai va uning tafsiriga tayanildi. Ishning natijasi sifatida, muallif o'z fikr-mulohazalarini bayon etadi. O'z davrida har bir devon tuzgan shoirlar barcha nazmiy janrlarni qamrab olishga va ularni tartib bilan joylashtirishga e'tibor qaratgan. Alisher Navoiy hazratlari ham bu an'anani yuqori saviyada davom ettirgan. Shu jihatdan, bu kichik tadqiqot uning fardlari tadqiqiga bag'ishlanadi. Bunda muallif zamon va makon nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda Navoiy fikrlarini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: Fard, ta'ma, xazina, rizq, tosh, yoqut, nafs.

ORDER OF BELIEFS IN ALISHER NAVOI'S FARDS 2

Annotation

Each work of Alisher Navoi deserves special importance and attention. Each word in it is used with a specific purpose and meaning. In fact, whether it is a large or small piece of art, it is not excluded from this. This article will not be about studying his major works, but, on the contrary, about his small ones, highly artistic and having deep content. The study of these small works, the presentation of their content and artistry is one of the current topics of our days. The study used translation of the meanings of the Holy Quran and its interpretation. Based on the results of the work, the author expresses his opinion. The poets who composed each divan in their time sought to cover all poetic genres and arrange them in an orderly manner. His Highness Navoi also continued this tradition at a high level. In this regard, this small study will be devoted to the study of his fards. At the same time, the author analyzes Navoi's thoughts from the point of view of time and space.

Key words: Fard, taste, treasure, sustenance, stone, ruby, lust.

ПОРЯДОК ВЕРОВАНИЯ В ФАРДАХ АЛИШЕРА НАВОИ 2

Аннотация

Каждое произведение Алишера Навои заслуживает особой важности и внимания. Каждое слово в нем используется с определенной целью и значением. На самом деле, будь то большое или маленькое произведение искусства, оно из этого не исключено. В данной статье речь пойдет не об изучении его крупных произведений, а, наоборот, о его малых, высокохудожественных и имеющих глубоких содержание. Изучение этих небольших произведений, представление их содержания и художественности – одна из актуальных тем наших дней. В исследовании использовался перевод смыслов Священного Корана и его толкование. По итогам работы автор высказывает свое мнение. Поэты, составлявшие каждый диван в свое время, стремились охватить все поэтические жанры и упорядоченно разместить их. Его Высочество Навои также продолжил эту традицию на высоком уровне. В связи с этим данное небольшое исследование будет посвящено изучению его фардов. При этом автор анализирует мысли Навои с точки зрения времени и пространства.

Ключевые слова: Фард, вкус, сокровище, пропитание, камень, рубин, похоть.

Kirish. Alisher Navoiyning har bir asari poyonsiz ummon kabidir. Mazmuniga kirib borgan sari yanada ma'no kengayib boraveradi. U yozib qoldirgan kichik lirik asarlar hisoblanmish fardlar ham shu jihati bilan e'tiborli. "Bu mumtoz siymo jahon adabiyoti mezonlariga, zamon va tarix sinovlariga to'la javob beradigan durdona asarlar yaratib, nafaqat o'zbek, balki barcha turkiy adabiyotlar rivojiga beqiyos hissa qo'shgan ham yuksak hayrat va tahsinga munosibdir"[10] – deydi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Alisher Navoiy va Sharq Renessansi" IV xalqaro simpoziumi ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida. Shuningdek, Alisher Navoiy asarlarini hayotga tatbiq etishdan maqsad va vazifa ham uning boy merosini o'qib-o'rganish, o'zlashtirish va kelajak avlodga taqdim qilishdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Alisher Navoiy lirikasida badiiyatga boy sof ma'nodagi ilmiy-ma'rifiy yoki ta'limiy-irfoniy asarlar talaygina. Bunga uning g'azallaridan va kichik lirik janrlardagi asarlaridan ko'plab misollar keltirish mumkin. Hazratning ushbu tarzidagi asarlarida ma'rifat tushunchasi izchil mazmun-mohiyatga ega bo'lgan holda, ba'zan tadjirli tarzda bayon etiladi. Uning kichik lirik asarlaridan fardlari alohida ahamiyatlidir. O'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos shakllanish jarayoniga ega bo'lgan lirik janrlardan biri fard hisoblanadi"[5]. "Fard"ning ta'rifini takrorlashni loyiq bilmay, uning tuzilishi jihatdan ixchamligi, ya'ni aynan mustaqil bir baytdangina iborat ekanligi ham janr nomiga ishora qilishi ko'pchilikka ayon. Fardlar mazmun mundarijasiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratiladi: didaktik

fardlar, falsafiy fardlar, ishqiy fardlar. Didaktik fardlarning mazmunidan pand-nasihat, falsafiy fardlarda muallif xulosasi va diniy qarashlari, ishqiy fardlar esa, zohirida majoziy ishq, botinida lohiy – tasavvufiy ishq yashirin bo'lgan yolg'iz baytlardir

Tadqiqot metodologiyasi. Alisher Navoiyning “Xazoyin ul- maoniy” kulliyotiga kiruvchi “Favoyid ul- kibar” devonida fardlarga alohida o'rin ajratilgan. Bir qarashda, fardlarning hajmi kichik, biroq ular o'zida mujassam qilgan va ishora qilgan ma'nolar to'g'ridan to'g'ri insonga qaratiladi. Asosida esa, davr muhitidan ufurib turadigan qonun-qoidalar, ahkomlar ijrosi va amali uchun harakatlar bo'y ko'rsatadi

Ta'ma etma, ko'p o'lsa el moli,

Ko'rmayin Haq xazinasini holi[2].

Fardning shakl jihatidan e'tibor bersak, bunda tazod san'ati yaqqol ko'rinib turibdi. “El” va “Haq” hamda “ko'p” va “holi” so'zlari zidlash san'atini yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga “el moli” va “xazina” so'zlari esa o'zaro mutanosib bo'lib tanosub san'atini hosil qiladi. Endi misralar mazmuniga e'tibor qilsak, bunda “o'zgalaridan bir narsa so'rab ta'ma qilish, xuddiki, Haq xazinasini holi(bo'sh) deb ko'rishdek gap. Vaholanki, barcha mulk Allohnikidir. Bu fardning mohiyatiga e'tibor qaratsak, rizq Allohdan ekanligi oydinlashadi. Mutafakkir neki so'rasang Allohdan so'ra deb uqtirmoqda”[4].

Insonlar orasida shunday toifalar borki, o'zgada bor narsani o'ziniki bo'lishini xohlaydi. Qur'oni Karim o'zbekcha ma'nolari tarjimasining birgina o'rnida, ya'ni Ahzob surasi 32-oyatida “Ey, Payg'ambar ayollari, agar taqvodor bo'lsangizlar, (o'zga) ayollarning birortasi kabi emasdirlizlar. Bas, sizlar (nomahram erkaklarga) mayin so'z qilmanglarki, aks holda qalbida buzuqlik bo'lgan kimsa ta'ma qilib qolur. Yaxshi (to'g'ri) so'zni so'zlangizlar!”[1] – deya ishlatilgan “ta'ma qilmoq” so'zi bor. Bunda mazmun “Munofiq va iymoni zaiflar sizning mayin ovozingizni eshitib fisq-u fujujni boshlab qolmasinlar”[6] – deganidir. Demak, ta'ma qilish “qalbida buzuqlik bo'lgan kimsa”ning ishidir. Bu o'rinda ta'ma Odam Ato farzandlari “Qobil va Hobil” haqidagi hikoyaga ham ishora emasmikian?!

“Xazina” so'zi esa, umumiy 21 o'rinda ishlatilgan. Hijo surasi 21-oyatida “Har bir narsaning xazinalari Bizning dargohimizdadir. Biz u narsalarni ma'lum o'lchov bilan (sizlarga) tushurmiz”[1] – deb e'tirof qilinadi. “Dunyoda hech bir narsa o'lchovsiz, betartib emas”[7]. Shunday ekan, ko'nglida buzuqligi bor kimsa Haq xazinasini bo'sh ko'raveradi. Haqning dargohidan umidini uzgan esa, o'z qalbini el moliga qaratadi va ularda bor narsaning o'zida ham bo'lishini xohlaydi. Ko'r bilan ko'ruvchi teng bo'lmaganidek, Haq xazinasidan umid qilgan va uni bo'sh ko'rgan ikki inson o'rtasida ham katta farq bor. El orasida “Allohninng dargohi keng” degan gap bor. Odatda bu gapni odamlar bir ishi o'xshamagan, qandaydir muammosi hal bo'lmagan, ruhan ezilgan, siqilgan vaqtlarda aytishadi. Bu bilan o'sha kishiga dalda berishadi, ko'nglini ko'tarishadi, Alloh xazinasidan unga boshqa bir mukofot tayyorlaganiga ishonitirishadi. Bu bilan umidsiz insonga umid bag'ishlanadi. Kimgadir nimadir ta'ma qilgan odam iymonidan ayrilar ekan, shuning oldini olish maqsadida bu so'zlar tez-tez el orasida ishlatiladi. Bu fard tartibi jihatdan uchinchidir, shunday ekan, ushbu fardni 1- va 2-fardlar bilan mazmunan bog'lashga urinamiz.

Dastlabki fardda nima bo'lsa ham, Haqdan so'rashga da'vat etilgan, ikkinchi fardda esa, nabi yo'lini tutish nazarda tutilgan. Endi, uchunchi 3-fardda bularga amal qilmagan inson haqida so'z boradi, ya'ni tamagir kimsalar haqida. Tamagir shunday insonki, u Haq xazinasini bo'sh ko'radi, o'zganing narsasini o'zida bo'lishini xohlaydi. Nabi yo'lini tutib har ehtiyojini Allohdan emas, Alloh rizqlantirgan bandalardan so'rab, ta'ma qiladi. Ularda bor narsalar tamagirning ko'ziga

ko'p ko'rinadi. Albatta, “Har bir narsaning xazinalari Bizning dargohimizdadir” – deyiladi, oyati karimada. Keyingi fard ham bevosita, bu fardlarning uzviy davomi sifatida yuzaga kelgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. O'z rizqi borasida halol rizq topish har bir inson uchun farzdir. Shu farzni bajarish uchun, topayotgan rizqini ko'paytirish uchun inson o'ziga ko'p anduh yuklamasligi kerak deyiladi quyidagi baytda:

Yetar chu rizqing, agar xoradur va gar yoqut,

O'zingga yuklama anduh tog'in, istab qut[2].

Bu fardda ham tanosub, ham tazod san'atlarini ko'rishimiz mumkin. “Xora” va “yoqut” so'zlarini qiymati jihatidan o'zaro zid, ammo ikkisi ham qattiq jism hisoblanadi. Qattiq jismligi ularni o'zaro tanosub san'ati hosil qilishiga turtki bo'ladi. Yana bu ikki so'z birgalikda “tog'” so'ziga ham zidlanadi, ham bir jins(tosh)dan ekanligi tanosubni hosil qiladi. Xo'sh, “rizq nima? Rizq – rizq-u nasiba; kundalik hayot uchun zarur ozuqa; islom diniga ko'ra, xudo har bir kishi, jonivor uchun atagan, o'lchab belgilab qo'yan nasiba, ulush. Oddiy toshdan qurilishda foydalanilsa, qimmatbaho toshlardan zargarlik buyumlarida foydalaniladi. Bugungi hayotimizda, kimdir oddiy tosh bilan, kimdir qimmatbaho tosh bilan kundalik nasibasini topadi”[4].

Tabiiyki, har bir kishi boshqa odamlarga qaraganda yaxshi yashashni, ya'ni to'yimli ovqatlanishni, toza va sifatli kiyinishni istaydi. Bu esa o'z navbatida yaxshi daromad qilishni anglatadi, biroq birov ishlab topgan rizq-u nasibasini o'zgasi sarf qilmaganidek, har birining o'zi xarajat qiladigan o'rinlari bo'ladi. Shu o'rinda fardda keltirilgan mazmunni anglashga kirishamiz. Birinchi misrada odam bolasiga “yetar chu rizqing” deb xitob qiladi muallif va u xoh “xora” – xor bo'lgan narsa, yerdagi beqadr tosh, xoh “yoqut” – turli rangli qimmatbaho tosh bo'lsin sening rizqing yetadi (rizqing senga yetib boradi) deb uqtiradi. Ikkinchi misrada esa rizqqa yetishish uchun “o'zinga yuklama anduh tog'in, istab qut” – deya ta'kidlaydi. Bundan sen izlagan qut-baraka senga Alloh tomonidan beriladi, rizqimni orttiraman deb o'zingni o'tga ham, chog'ga ham urib g'am-tashvish chekma, degan ma'noni uqish mumkin. Endi bir qiziq jihati shundaki, Alisher Navoiy nega rizqni tosh bilan qiyoslamogda?! Odatda, rizq-u nasiba odamzotning uchun yeb-ichishi, kiyinishi, to'kin yashashi uchun muhim bo'lgan tushunchalardir. Odam tirikligi esa suv bilan.

Qur'oni Karimda tosh so'zi 80 dan ortiq, rizq so'zi 160 dan ortiq o'rinlarda ishlatilgan. Mus'hafning Baqara surasi 60-oyatida: “Eslang (ey, Isroil avlodi), Muso o'z qavmi uchun suv so'raganida, “Asoingni toshga ur” dedik. Bas, undan (toshdan) o'n ikki chashma otilib chiqdi. (O'n ikki urug'dan) har bir guruh o'z suvini bilib (taqsimlab) oldi. “Allohninng rizqidani yeb-ichingizlar, Yer yuzida buzg'unchilik qilmangizlar”[1] – degan xitob keltirilgan.

“Ya'ni, Muso alayhissalom asolari bilan urgan toshdan o'n ikki buloq otilib chiqdi. Bani Isroil o'n ikki qabiladan iborat edi, har qabilaga bittadan buloq bo'lib, har kim o'z suviga ega bo'ldi”[8]. Bu, albatta, payg'ambar mo'jizalaridan edi. Suv yo'q joyda odamlarning rizqi ham topilmaydi. Qavmiga suv so'rab duo qilgan Muso alayhissalomning mo'jizasi ham qattiq toshlardan tiniq chashmalarni chiqarish bo'ldi. Inson nafsi faqat suv bilan qonsa yoki suv bilan yetishtirilgan ekinlar bilan qonsa, hech qanaqa muammo yo'q. Ammo bular insonning nafsini orttirgani sayin orttiradiki, aslo kamaytirmaydi. Oqibatda suvga emas, buloqqa, buloqqa emas, daryoga, daryo nima? Dengizga, dengizni qo'ying, okeanga egalik qilgisi keladi.

Yoki Ra'd surasi mazmunida jilg'alarni to'ldirib oqib kelayotgan yomg'ir suvi haqiqatga, suv ustidagi ko'pik esa botilga tashbeh qilinsa, har qanday yerosti ma'danlari ham eritilganida ulardan sof qimmatbaho ma'dan bilan birga ularga aralashib qolgan oddiy toshlar ham chiqishi aytilib, sof ma'dan

haqiqatga, chiqindilar esa botilga o'xshatilgan. Bundan yaxshi va yomon fe'lli odamlarni farqlash nazarda tutilgan. Xuddi yaxshi fe'lli odam oqar suv bo'lib, yomon fe'lli odam suv ustidagi ko'pik misol ta'rif qilinadi. Yana boshqa tashbehda esa yaxshi va yomon fe'lli odamlarni yerostidagi ma'danga qiyoslanadi. Bunda yer ostidan topilgan ma'dan tosh(yombi)lar asl ma'dan qolguncha fitna (reaksiya) qilinganda asl ma'dan toshlar ajralib, qolganlari ko'piktosh(shlak)ga aylanib chiqadi. Inson aqli toshdan zar qilishga ham yetdi, endi u avvaliga bitta buyumga, keyin yana qandaydir jamlanmaga, oqibatda ma'dan konlariga egalik qilishni xohlab qoladi. Rizqni o'rttirish, mol-davlatni ko'paytirish uchun inson nimalar qilmaydi?

Va yana Zoriyot surasi 32-33-34-oyatlarida: 32. "Aytidilar: "Bizlar bir jinoyatchi qavmga (Lut qavmiga) yuborildik. 33. Loy sopolidan qilingan toshni ular uzra yog'dirishimiz kerak. 34. Parvardigoring nazdida haddan oshuvchi kimsalar uchun (har bir toshga) belgi qo'yilgan (nomlari yozib qo'yilgan)"[1] – degan suhbat keltiriladi. "Oyatdagi "jinoyatchi qavm"dan murod Lut qavmidir. Bu qavm insoniyat tarixida bo'lmagan ulug' jinoyatni sodir etgan. Ular o'zlariga erkak bilan erkakning jinsiy aloqa qilishini ravo ko'rdilar. Bu jinoyatdan ularni Payg'ambar Lut alayhissalom qaytardilar, lekin foyda bermadi. Oqibatda ular Allohning azobiga duchor bo'ldilar. O'sha jinoyatchi qavmga Alloh taolo iroda qilgan azobni yetkazish Ibrohim alayhissalom bilan suhbatlashib turgan mana shu farishtalarga topshirilgan edi. Shu bilan birga, ularga yo'l-yo'lakay ibrohim alayhissalomga

ilmli o'g'il bashoratini berib o'tish ham topshirilgan edi. Ammo Ibrohim alayhissalom ularni savolga tutib qolganlaridan keyin o'zlari bajarishlari lozim bo'lgan ish haqida ham axborot bera boshladilar"[9].

Ushbu oyatda keltirilgan "tosh" azob, jazo ma'nolarida ishlatilgan. Yuqoridagilarga e'tibor qaratsak, bir toshdan suv ham, ma'dan ham, azob ham kelishi mumkinligini anglasak bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Hazrat Navoiyning bu ikki fardini tahlil qilishda, avvalo, uning tartib bilan joylashgani va mazmunida ta'ma va rizq ma'nosi sezilib turgani o'quvchining diqqatini o'ziga qaratadi. Bu esa shu ikki fardning mavzumiz doirasida tadqiq qilinishiga yo'l ochadi. Go'yoki, 1-2-fardlar mazmunidan 3-4- fardlar o'sib chiqayotgandek.

Demak, rizq va tosh so'zlari o'zaro qiyos qilinishi Alisher Navoiy misralaridagi ma'noga chuqurroq kirishimizni taqazo qilargan ekan. Suv, ma'dan va tanamizga tegadigan toshni bu dunyoda ko'rib guvohi bo'lishimiz mumkin. Qolganini muallif ham aytmaydi, "o'zingga yuklama anduh tog'in, istab qut" – deydi.

Xulosa va takliflar. Shunday ekan, kichik lirik janr hisoblanmish fard ikki misraning o'zida olam-olam ma'no jamlashi mumkin. Uning mazmunida insoniyat taraqqiyoti jarayonida tugal bir fikrga kelgan hayotiy tajribalar aks etadi. Biz esa bunday lo'nda xulosalarni o'z hayotimizda ishlata olmog'imiz lozim.

ADABIYOTLAR

1. Abdulaziz Mansur, Qur'oni karim ma'nolari tarjimai. – T.: B – 483. www.ziyouz.com
2. Alisher Navoiy, "Xazoyin ul-ma'oni" "Favoyid ul-kibar", – T.: B – 403. www.ziyouz.com
3. Alisher Navoiy. MAT, 20 jildlik, 6 – jild. – T.: Fan. 1990.B – 534.
4. G'afurov N. FARDLARDAN FAHMLAB... ||PEDAGOGS, Volume – 7, Issue – 1, 2022. – B. 529-532.
5. G'afurov N. ALISHER NAVOIY FARDLARIDA E'TIQODIY TARTIB. ||O'zMU Xabarlari, Ijtimoiy-gumanitar fanlar turkumi. 2024 1/8/1-son. 270-272-b.
6. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тафсири ҳилол, иккинчи нашр. Т.: Шарқ . 2008 й 4 жуз. Б – 640.
7. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тафсири ҳилол, иккинчи нашр. Т.: Шарқ . 2008 й 3 жуз. Б – 671.
8. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тафсири ҳилол, иккинчи нашр. Т.: Шарқ . 2008 й 1 жуз. Б – 665.
9. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тафсири ҳилол, иккинчи нашр. Т.: Шарқ . 2008 й 5 жуз. Б – 672.
10. <https://daryo.uz/2025/02/08/alisher-navoiy-va-sharq-renessansi-iv-xalqaro-simpoziumi-ishtirokchilariga>